

**«UzAuto Motors» AJ**  
**XARID XUJJATLARI**



22ZD-1609-00145

2022-06-30

**Yuboruvchi:**

**Qabul qiluvchi:**

Xo'jalik bo'linmasi

«UzAuto Motors» AJ

Shamuradov Axrol Axmad o'g'li

Andersson Bo Inge

Bo'linma boshlig'i

Korxonada bosh direktori

**Konkurs xujjatlari (500 mln. so'mgacha Toshkent)**

Tasdiqlayman

«UzAuto Motors» AJ

Toshkent filiali

Direktori v.b.

\_\_\_\_\_ Zakirov S.N.

\_\_\_\_\_ 2022 yil.

**ENG YAXSHI TAKLIF QABUL QILISH UCHUN XARID QILISH  
HUJJATLARI**

«UzAuto Motors» AJ Toshkent filiali

Angren shahar yuklab-tushirish terminaliga import va eksport yuklarni o'z vaqtida bojxona hujjatlarini  
rasmijlashtirish uchun shartnomasini tuzish.

Buyurtmachi: «UzAuto Motors» AJ

## MUNDARIJA

1. Tanlov ishtirokchilariga ko'rsatmalar.
2. Tanlovning texnik qismi.
3. Tanlovning narx qismi.
4. Shartnoma loyixasi.

### 1. TANLOV ISHTIROKCHILARIGA KO'RSATMALAR

1.	Umumiy tartib	1.1	Mazkur tanlov xujjatlari O'zbekiston Respublikasi quyidagi qonun talablariga muvofiq ishlab chiqilgan. O'RQ-684 sonli «Davlat xaridlari to'g'risida»gi (keyingi o'rinlarda – «Qonun») qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-fevral kungi «Loyihaoldi, loyiha, tender hujjatlari va kontraktlarni ekspertizadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi №PF-3550 sonli (keyingi o'rinlarda – «Farmon») farmoni xamda «Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi buyruq (Adliya Vazirligi ro'yxat raqami 26.05.2018 y. kungi №3016 (keyingi o'rinlarda – «Nizom»)ga muvofiq ishlab chiqilgan.
		1.2	Tanlov predmeti “UzAuto Motors” AJ Toshkent filiali Angren shahar yuklab-tushirish terminaliga import va eksport yuklarni o'z vaqtida bojhona hujjatlarini rasmijlashtirish uchun shartnomasini tuzish tomonidan shartnoma tuzilishi kerak. Import va eksport qilinayotgan yuklar uchun qonunchilikka muvofiq zaruriy hujjatlarni yigib olish, taxlil qilish va bojhona yuk deklaratsiyasini rasmiylashtiruvga o'z vaqtida taqdim etish, taqdim etilgan BYuD bo'yicha ko'rsatilgan bo'limlarni himoya qilish, zarurat bo'lganda tegishli o'zgartirishlar kiritish.
		1.3	Tanlovning minimal qiymati va valyutasi tanlov xujjatlarining narx qismida ko'rsatilgan.
		1.4	Sotib olinadigan tovar (xizmat, ish) uchun texnik topshiriqlar tanlov xujjatlarining texnik qismida ko'rsatilgan.
		1.5	Xarid komissiyasining majlislari online tarzda yoki, videokonferentsiyalar (telekonferentsiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi ham mumkin
			Tanlov buyurtmachisi «UzAuto Motors» (keyingi o'rinlarda - «buyurtmachi»).
2.	Tanlov Tashkilotchisi	2.1	Yuridik manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100200, Toshkent shahri yashnaobod tumani, Elbek ko'chasi 61  «Buyurtmachi» Rekvizitlari: MFO 00873, STIR 200244767  x/r 2021 4000 5005 3230 5021 «Asaka» Bank

- Buyurtmachi bilan bog'lanish :
- 2.2 Maxsus axborot portaliga joylashtiriladi.
- 2.3 Tanlov komissiyasi ishchi organi «UzAuto Motors» AJ Global xarid boshqarmasi xisoblanadi (keyingi o'rinlarda - «Ishchi organ»).
- 2.4 Shartnoma egasi: «UzAuto Motors» AJ Toshkent shahar filiali.
- 2.5 Tanlov xujjatlari qonun xujjatlari asosida shakllangan besh kishilik komissiya a'zolari tomonidan baxolanadi.
3. Tanlov qatnashchilari 3.1 Tanlovda O'zbekiston Respublikasi rezident va norezidentlari qatnashish xuquqiga ega. Tanlov xujjatining 4.2 bandida sanab o'tilgan talablar budan mustasno.
4. Tanlov o'tkazish tartibi 4.1 Tanlovda qatnashish uchun tanlov qatnashchilari:
- 4.2 a) Qonun xujjatlari va tanlov xujjatlari talablari xamda shartlariga muvofiq tijroiyl taklifini yuborish.
- 4.2 Tanlovda qatnashish uchun quyidagi qatnashchilarga ruxsat etilmaydi:
- Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorlik mavjudligi, bankrotlik yoqasida turganligi, offshor hududda hisob raqamlari mavjudligi, o'zaro afillangan shaxslar borligi yoki insofsiz ijrochilar yagona ro'yhatiga kirib qolganligi sababli qayta tashkil etilayotgan, tugatish va bankrotlik xolatlarida turgan tashkilotlar;
- Buyurtmachilar bilan sudlashish jarayonida yoki arbitraj sudida muxokamada bo'lgan qatnashchilar:
- Insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida turuvchi qatnashchilar;
- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorligi mavjudlar;
- imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va / yoki moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmagan shtatlar yoki hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlari bo'lgan (offshor hududlar);
- O'zaro afillangan shaxslar tanlovda birga ishtirok etishi mumkin emas
- 4.3 Buyurtmachi quyidagi holatlarda ishtirokchini tanlovda qatnashishni diskvalifikatsiya qilish huquqiga ega:
- ishtirokchi tanlov jarayonida qaror qabul qilish uchun yoki boshqa xarakatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita xaridorning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsiga, yoki xodimiga, yoki boshqa davlat organiga har qanday shaklda, qimmatbaho narsa, yoki xizmat taklif qilsa;
- ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda adolatsiz raqobat ustunligiga yoki manfaatlar to'qnashuviga ega.

5.	Tanlov tili, o'lchov birligi.	5.1	<p>Tanlov taklifi va ishtirokchi bilan buyurtmachi o'rtasida amalga oshiriladigan barcha tegishli yozishmalar (hujjatlar) o'zbek tilida bo'lishi kerak. Tanlov taklifi boshqa tilda bo'lishi mumkin, agar u o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa. Tanlov taklifi matnida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, bir nechta til ishlatilganda, o'zbek tili ustun deb hisoblanadi. Texnik hujjatlarni ingliz tilida taqdim etishga ruxsat beriladi.</p>
6.	Tanlov taklifi va uni rasmiylashtirish tartibi	6.1	<p>Portalda e'lon qilingan tanlov ishtirokchilari taklifni belgilangan tartibda <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> saytiga joylaydi.</p>
		6.2	<p>Tanlov ishtirokchisi:</p> <p>Yakka tartibdagi tadbirkor yoki rezident faqatgina elektron raqamli imzodan (ERI) foydalanib ro'yhatdan o'tishi mumkin bo'ladi.</p> <p>Portalg joylangan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va ishonchliligi uchun javobgardir;</p> <p>faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;</p>
			<p>takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar taqdim etilgan taklifni qaytarib olish.</p> <p>Taklif ikki qismdan iborat:</p>
			<p>Texnik qism. Buyurtmachining texnik talablariga javob berishi va taklif qilinayotgan mahsulotning batafsil tavsifini o'z ichiga olishi kerak;</p>
		6.3	<p>Narx qismi. Tanlov shartlariga mos kelishi va tanlov taklifining narx qismidagi talablarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak (shu jumladan mahsulot nomi, birlik narxi, barcha soliqlarni o'z ichiga olgan umumiy qiymati, to'lov shartlari, taklifning haqiqiyliigi va boshqalar).</p>
		6.4	<p>Korrupsiya holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha tanlov ishtirokchilarining majburiy ravishda portalga joylash</p>
		6.5	<p>Tanlov takliflari <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a>, portalida e'lon qilingan kundan boshlab 10(o'n) kun ichida (17:00 gacha): <a href="http://etender.uzex.uz">http://etender.uzex.uz</a> portaliga joylanadi</p>
		6.6	<p>Tanlov ishtirokchilarining takliflarini amal qilish muddati takliflar tugagan kundan boshlab kamida 10(o'n) kun bo'lishi kerak.</p>
7.	Takliflarni berish muddatlari	7.1	<p>Buyurtmachi tanlov takliflarini qabul qilish muddatlarini uzaytirishi mumkin emas, faqatgina tanlovni qayta e'lon qilishi mumkin.</p>
		7.2	<p>Tanlovlarni qayta e'loni axborot portalida joylashtiriladi va agar kerak bo'lsa, xaridor veb-saytida yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.</p>

			Zarur bo'lganda, buyurtmachi tanlov hujjatlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ega.
			Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror takliflarni taqdim etish muddati tugashidan uch kundan kechiktirmay qabul qilinishi mumkin.
8.	Tanlov hujjatlariga kiritiladigan o'zgarishlar	8.1	<p>Tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish jarayonida mahsulot (ish, xizmat) yoki ularning xususiyatlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>Agar tanlov hujjatlariga takliflarni taqdim etish muddati tugagunga qadar o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsa, tanlov hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilgan kundan boshlab kamida o'n kunga uzaytiriladi.</p> <p>Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlov e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.</p> <p>Buyurtmachi komissiya a'zolari ro'yxatini shakllantirishdan avval, har bir komissiya a'zosi haqida ma'lumot kiritib chiqish bilan birga unga shaxsiy kabinet yaratadi.</p> <p>Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Komissiya" bo'limiga kirib "Qo'shish" tugmasini bosadi.</p>
9.	Tanlovga takliflari baholash tartibi va mezonlari	9.1	<p>Komissiyaning har bir a'zosi uchun shaxsiy kabinet yaratilgandan so'ng, har bir a'zo ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ko'rsatilgan elektron pochtaga tizim shaxsiy kabinetni faollashtirish uchun havola yuboradi.</p> <p>Shaxsiy kabinetga birinchi marotaba kirilayotganda xarid komissiyasining har bir a'zosi, shu jumladan uning raisi ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni kiritishi shart.</p> <p>- <b>Ball usuli</b> – tanlov taklifining texnika va kvalifikatsion hamda narh qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini g'olib sifatida aniqlaydi.</p>
		9.2	<p>- <b>Eng past narh usuli</b> – tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narhni taklif etgan ishtirokchini</p>
		9.3	<p>Tanlov komissiyasi tanlov g'olibini aniqlash bo'yicha rad etilmagan takliflarni tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi.</p>
		9.4	<p>Tanlov ishtirokchisi taqdim etgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar ishonchli bo'lmaganligi aniqlangan taqdirda, tanlov komissiyasi bunday ishtirokchini tanlovda qatnashishdan chetlatishga haqli.</p>
		9.5	<p>Tanlov hujjatlari muvvaqqiyatli joylashtirilgandan so'ng, moderatsiyaga yuboriladi. Tanlov hujjatlari moderatsiyadan muvvaqqiyatli o'tgandan so'ng tizim tanlov hujjatini avtomatik tarzda komissiya a'zolariga yuboradi.</p>
		9.6	<p>Tanlov hujjatlari komissiya a'zolari tomonida ko'p ovoz yig'ish yo'li bilan tasdiqlanadi. Kommissiya a'zolarining kotibidan tashqari har biri bir marotabadan ovoz berish huquqiga ega.</p>

- 9.7 Agar taklifni taqdim qilgan tanlov ishtirokchisi tegishli Qonun va Qarorlar tomonidan qo'yilgan talablarga mos kelmasa yoki taqdim qilingan taklif tanlov hujjatlari talablariga mos kelmasa ishchi organ bu taklifni tanlovdan chetlatadi
- 9.8 Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga kelsa harid komissiyasining a'zolari va ma'sul kotibi o'zaro chat orqali muloqot qilishlari mumkin bo'ladi.
- 9.10 Agar tanlov shartlariga ko'ra tanlov ishtirokchilari turli valyutalarda narx taqdim qilsalar, baxolash paytida taklif summolari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tanlov taklifining narxga oid qismi bor tanlov tugashi sanasidagi valyutalar kursi bo'yicha xisoblanadi.
- 9.11 Tanlov hujjatlarida va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnoma bajarilishi uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlov ishtirokchisi g'olib deb topiladi.
- 9.12 Agar komissiya a'zolarida tanlov hujjati bo'yicha e'tirozlar mavjud bo'lsa, buyurtmachida tanlov hujjatlari bir ovozdan tasdiqlanmaganligi haqida ma'lumot aks etadi, buyurtmachi kerakli ma'lumotlarni o'zgartirib, qayta moderatsiyaga jo'natadi, tanlov hujjati moderatsiyadan muvaffaqiyatli o'tkandan so'ng tizim avtomatik tarzda ularni komissiyaga ko'rib chiqish uchun yuboradi. Komissiya a'zolari tanlov hujjatlarini qaytadan ko'rib chiqadilar. Tanlov hujjatlari komissiya tomonidan bir ovozdan ma'qullangandan so'ng, komissiya kotibi yoki raisi buyurtmachiga yuboradi.
- 9.13 Tanlov shartlarida narxlarni turli valyutalarda taqdim etish nazarda tutilgan xollarda, chet ellik va maxalliy ishtirokchilarning narxlarini to'g'ri taqqoslash, chet el valyutasidagi takliflarni to'g'ri baxolash uchun chet el valyutasida taklif bergan ishtirokchi chet el valyutasida sotiladigan tovar (ish, xizmat) larga solinadigan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan amaldagi barcha turdagi soliqlar, yig'imlar, majburiy to'lovlarning joriy stavkalari va foizlarini ko'rsatishi shart. Ishtirokchi ushbu masala bo'yicha berilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligi uchun javobgardir.
- 9.14 Komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlangan tanlov hujjati komissiya kotibi yoki raisi tomonidan buyurtmachiga yuboriladi.
- 9.16 Xarid protsedurasi natijalariga ko'ra, alohida har bir mahsulot (ish, xizmat) bo'yicha bir nechta g'oliblar yoki umumiy natija orqali aniqlanishi mumkin.
- 9.17 Ishtirokchilar tomonidan kelib tushgan takliflar tanlov o'tkazish bo'yicha e'londa ko'rsatilgan talablar asosida tanlov taklifining texnik qismini miqdoriy ko'rsatkichlarini va narx qismini baholash elektron tizim tomonidan avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismining miqdor ko'rsatkichlarga ega bo'lmagan mezonlarini (ekspert mezonlari) baholash va taqqoslash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

- tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda)

9.18 - tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan maxfiylikka rioya qilinishiga quyidagilar javobgar:

- ishchi organ tarkibiga kiruvchi, kelib tushayotgan tanlov takliflarini xisobga olib boradigan va ularning saqlanganligi va maxfiyligini ta'minlaydigan shaxslar;

- komissiya raisi va a'zolari, shuningdek, tanlov takliflarini o'rganish, ma'lumotlar oshkor qilinishi, ishtirokchilar, boshqa komissiya a'zolari va jalb qilingan mutaxassislar o'rtasida til biriktirishlar va boshqa noqonuniy xatti-xarakatlar nazorati uchun tashkil qilingan ishchi gurux a'zolari

10. Tomonlarning javobgarligi va maxfiylik bajarilishi

10.1 - barcha maxfiy texnik ma'lumotlar (chizmalar, standartlar va x.k) buyurtmachining tijorat siri bulib, uni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv tuzish orqali ishtirokchilarga taqdim etiladi.

-Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, Ishtirokchi tomonidan oshkor qilingan xolatda, va bu xolat Buyurtmachiga zarar keltirsa, Buyurmachi ushbu zarar miqdorini to'raligicha qoplab berilishini Ishtirokchidan talab qilish xuquqiga ega va o'z navbatida Ishtirokchi zarar miqdorini, yo'qotilgan foyda miqdorini xisobga olgan xolda, Buyurtmachiga to'raligicha qoplab berishi shart.

- Ishtirokchi, tijorat siri bo'lgan texnik ma'lumotlarni oshkor qilinishi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, fuqorolik, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib kelishi xaqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi.

10.2 Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan (miqdor, sifat va texnik parametrlar bo'yicha) tanlov g'olibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va / yoki tuzilgan shartnoma bo'yicha javobgar bo'ladi.

11. Boshqa talablar

11.1 Agar tanlov ilgari O'zbekiston Respublikasiga yetkazib berilmagan zavod mahsulotlarini taklif qilsa, tanlov komissiyasi tanlov ishtirokchisidan ushbu mahsulotlar haqida uchinchi shaxslardan fikr-mulohaza bildirishni so'rashga haqli.

11.2 Tanlovda qatnashish istagini bildirgan ishtirokchilar, o'tkazilayotgan tanlov haqida tushuntirish berish uchun ishchi organga murojaat qilish huquqiga ega.

			- Elektron tanlov ishtirokchisida tanlov hujjatlari bo'yicha savollar yuzaga keladigan bo'lsa buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin murojaat qilishi mumkin bo'ladi.
		11.3	
			-Buyurtmachi so'rov kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki kun ichida ushbu so'rovga ochiq elektron chat orqali tushuntirish yuborishi shart.
			Quyidagi hollarda tanlov komissiyasi tomonidan tanlov o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:
		11.4	- tanlovda bitta ishtirokchi qatnashsa yoki xech kim qatnashmasa;
			- takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra tanlov komissiyasi hamma takliflarni tanlov hujjatlari talablariga mos kelmaganini nazarda tutgan holda rad etgan bo'lsa.
		11.5	Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif qabul qilinishidan oldin istalgan vaqtda tanlovni bekor qilishga haqli. Tanlov bekor qilingan taqdirda, buyurtmachi ushbu qarorning asosli sabablarini maxsus axborot portalida e'lon qiladi.
		11.6	Ishtirokchi asosiy benefitsiar mulkdor to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishi kerak.
12.	Shartnomani rasmiylashtirish	12.1	Tanlov natijalariga ko'ra, shartnoma tanlov hujjatlarida va shartnoma tuzilgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan shartlarda tuziladi.
			Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon komissiya tomonidan 5 (besh) kun ichida tasdiqlangandan keyin buyurtmachi e'lonni savdoga joylashtirishi kerak bo'ladi. Buning uchun buyurtmachi shaxsiy kabinetning "Mening e'lonlarim" bo'limidagi jadvalning eng oxirgi "Harakat" bo'limi orqali "Savdoga joylashtirish" tugmasini bosadi.
		12.2	Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lon joylashtirilgandan so'ng kamida 10(o'n) kun savdoda faol turadi, shu fursat ichida ishtirokchilar o'z takliflarini elektron tarzda berishlari mumkin bo'ladi. Shundan so'ng, avtomatik ravishda, eng yaxshi taklifni tanlash bayonnomasi chiqadi, so'ng bayonnomani 2 (ikki) kun ichida komissiya a'zolari g'olibni tasdiqlab beradilar va tomonlar o'rtasida shartnoma tuziladi.
		12.3	Agar tanlov g'olibi tanlov shartlari to'g'risida shartnoma tuzishdan bosh tortsa, shartnoma tuzish huquqi zaxira pudratchiga o'tadi. Bunda zaxira pudratchi tanlov g'olibi taklif qilgan narx bo'yicha shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

## 2. TEXNIK QISM

"UzAuto Motors" AJ Toshkent filiali Angren shahar yuklab-tushirish terminaliga import va eksport yuklarni o'z vaqtida bojhona hujjatlarini rasmiylashtirish uchun shartnomasini tuzish.

Taqdim etilgan tovarlarning miqdori va hajmi (xizmatlar, ishlar hajmi) va ular uchun xarakteristikalar (talablar).

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) "Texnik topshiriq" tanlov hujjatlari (bundan buyon matnda - TT)



Texnik qismining 1-ilovasida ko'rsatilgan talablarga muvofiq ishtirokchi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Yetkazib berish muddati shartnoma bo'yicha oldindan to'langan kundan boshlab 150 ish kuni.

Texnik qismga 1-sonli ilova: Texnik topshiriq (TT)

### 3.NARXLAR QISMI

Ishtirokchi taklifda QQSni hisobga olgan xolatda hamda QQSni hisobga olmagan xolatda narxlarni ko'rsatishi shart.

Narxlar taklifi va narxlar jadvali ishtirokchi tomonidan tanlov hujjatlarining narxlar qismiga asosan taqdim etiladi.

Ishtirokchi tovarlar (xizmatlar, ishlar) birligining narxini ko'rsatishga majburdir.

Agar xaridor narxlar jadvalining batafsil shaklini taqdim etsa, ishtirokchi to'ldirilgan jadvalni elektron shaklda taqdim etishga majbur bo'ladi. Barcha boshlang'ich narxlar formulalari kuzatilishi kerak va narxning tarkibiy qismlari shaffof va tushunarli bo'lishi kerak. Yashirin formulalar yoki narx komponentlari bo'lmasligi kerak.

Buyurtmachi ishtirokchi tomonidan asosiy narx taklifiga qo'shimcha yoki uning o'rniga taklif qilinadigan muqobil narx takliflarini ko'rib chiqmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.	Taxminiy narx	272 000 000 (ikki yuz etmish ikki million so'm)
2.	Moliyalashtirish manbasi	O'z mablag'lari
3.	To'lov shartlari va to'lov tartibi	Ishlar bajarilgandan keyin xisob varaq fakturaga asosan to'lov
4.	To'lov valyutasi	UZS (so'm)
5.	Import va eksport yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish xizmatini ko'rsatish vaqti	Shartnoma bo'yicha bir yilga
6.	Import va eksport yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish xizmatini ko'rsatish joyi	Angren shahar yuklab-tushirish terminali, Ipak yo'li 2
7.	Taklifning amal qilish muddati	10 kun

*To'liq ism-sharifi. Rahbar va vakolatli shaxsning imzosi Ishtirokchi korxonada muxri qo'yish joyi*

Sana: «\_\_\_»\_\_\_\_\_ 2022y.

*Eslatma: Mahsulotning birlik narxi va umumiy narxi o`rtasida, shuningdek tanlov taklifining alohida hujjatlari o`rtasida tafovutlar mavjud bo`lgan taqdirda, Buyurtmachi o`zi uchun foydali bo`lgan narx (qiymat) yoki shartlarni qabul qilishga haqli.*

---

**Komissiya raisi**

**Sanoat va axborot  
texnologiyalarida tijorat  
aloqalarini kengaytirish va  
mahalliyashtirish masalalari  
bo'yicha bosh direktor birinchi  
o'rinbosari**

*Bosh direktorning birinchi  
o'rinbosari funktsiona guruhi*



2022-06-30 10:36

**B. U. Xusainov**  
2022-06-27 09:18

---

**Komissiya a'zolari**

**Xizmat rahbari**  
*Ichki audit xizmati*



2022-06-17 15:08

**B. X. Isomiddinov**  
2022-06-17 14:42

**Departament direktori**  
*Yuridik departament*



2022-06-17 16:20

**R. R.  
Shaymardonov**  
2022-06-17 14:42

**Bosh buxgalter o'rinbosari**  
*Buxgalteriya hisobi bo'limi  
(Toshkent sh.)*



2022-06-17 16:07

**G. A. Petrova**  
2022-06-17 14:42

**Direksiya direktori**  
*Iqtisodiy rejalashtirish direksiyasi*



2022-06-17 16:24

**U. E. Kurbanov**  
2022-06-17 14:42

---

**Bo'lim ichida rozilik**

---

**Direktor**

*Toshkent sh. "UzAuto Motors"  
AJning filiali*



2022-06-17 14:42

**S. N. Zakirov**  
2022-06-17 14:04

---

**Mas'ul****Bo'linma boshlig'i**

*Xo'jalik bo'linmasi*



2022-06-17 14:04

**A. A.  
Shamuradov**  
2022-06-17 14:04